

2024-yilda maishiy elektronikada jahon plastik bozori hajmi 6,52 milliard dollarni tashkil etdi

// 06.02.2025

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/2024-yilda-maishiy-elektronikada-jahon-plastik-bozori-hajmi->



2034-yilga borib ushbu ko'rsatkich yiliga o'rtacha 3,8 foizga o'sib, 9,5 milliard dollardan oshishi kutilmoqda. Bunday o'sish keng turdagi elektron qurilmalarini ishlab chiqarishda zamonaviy, yengil va mustahkam plastik materiallarga bo'lgan talabning ortib borayotgani bilan izohlanmoqda. Bu haqda Precedence Research tahliliy kompaniyasi ma'lum qildi.

O'tgan 2024-yilda bo'lgani kabi Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya va Hindistonda elektronika ishlab chiqarishning jadal rivojlanayotgan tarmoqlari tufayli Osiyo-Tinch okeani mintaqasi bu borada yetakchilikni davom ettiradi.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi arzon ishchi kuchi, texnologik yetakchilik va ishlab chiqarish gigantlariga ega bo'lgan muhim elektronika ishlab chiqaruvchisi bo'lib qolmoqda. Bunda Xitoy asosiy o'rinni egallaydi, chunki u dunyodagi eng yirik yetkazib beruvchi hisoblanadi.

Shimoliy Amerikada texnologiyaning rivojlanishi va tibbiyot buyumlari, avtomobillar va maishiy elektronika kabi mahsulotlarda elektronikadan foydalanish tendensiyasi tufayli ushbu bozor eng tez sur'atlar bilan o'sishi kutilmoqda.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati